

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**AVTOVOKZAL (AVTOSTANSIYA) PASPORTINI BERISH TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

“Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining **12-moddasini** bajarish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. Avtovokzal (avtostansiya) pasportini berish tartibi to‘g‘risidagi **nizom** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Oldingi tahrirga qarang.

2. O‘zbekiston avtomobil transporti agentligi:

(2-bandning birinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

ushbu qaror kuchga kirgunga qadar avtovokzal (avtostansiya) pasportini olgan tadbirkorlik subyektlariga 2014-yil 1-noyabrgacha bo‘lgan muddatda mazkur qaror talablariga muvofiq yangi namunadagi avtovokzal (avtostansiya) pasportini bersin;

bir hafta muddatda amaldagi pasportlarni yangi namunadagi avtovokzal (avtostansiya) pasportiga almashtirish jadvalini tasdiqlasin;

yangi namunadagi avtovokzal (avtostansiya) pasportini berishda byurokratizm, sansalorlik holatlariga yo‘l qo‘yilmasligiga va ularni berish muddatlari cho‘zib yuborilmasligiga e‘tibor bersin; o‘zi qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin;

tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida ushbu qarorning maqsadlari, mazmun-mohiyati va amaliy ahamiyatini keng yoritish tadbirlari tashkil etilishini va amalga oshirilishini ta‘minlasin.

3. Belgilab qo‘yilsinki:

tadbirkorlik subyektlarining ushbu qaror kuchga kirgunga qadar olingan avtovokzal (avtostansiya) pasportida nazarda tutilgan faoliyati mazkur qaror talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak;

ushbu qaror 2-bandning **ikkinchi xatboshida** nazarda tutilgan muddat tugagandan keyin mazkur qaror kuchga kirgunga qadar berilgan avtovokzal (avtostansiya) pasportlari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari B.I. Zakirov zimmasiga yuklansin. .

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2013-yil 5-dekabr,
320-son

Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 5-dekabrda 320-son qaroriga
ILOVA

**Avtovokzal (avtostansiya) pasportini berish tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom avtovokzal (avtostansiya) faoliyatini amalga oshirish uchun avtovokzal (avtostansiya) pasportini (keyingi o‘rinlarda pasport deb ataladi) berish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar va atamalardan foydalaniladi:

avtovokzal (avtostansiya) — transport-ekspeditsiya, tashish faoliyatini amalga oshiradigan va yo‘lovchilarga boshqa xizmatlar ko‘rsatadigan tashkilot;

madaniy-maishiy va sanitariya-gigiyena inshootlari — kafe, bufet, sartaroshxona, poyabzal ta'mirlash punkti, pardozi xonalari, dushxonalar, dam olish uchun mebellar bilan jihozlangan xonalar va shu kabilar;

litsenziya kartochkasi — yo'lovchilar tashish uchun foydalaniladigan muayyan avtotransport vositasiga belgilangan tartibda litsenziyalash organi tomonidan beriladigan avtotransport vositalari bilan yo'lovchilar tashishni amalga oshirish (huquqi) uchun ruxsatnoma;

reyslar oralig'idagi bo'sh turib qolish — shaharlararo tashuvlarni bajaruvchi avtotransport vositasining reyslar oralig'ida avtovokzal (avtostansiya)da turish vaqti;

perron — avtobuslarni qabul qilish va jo'natish, yo'lovchilarni avtobusga xavfsiz chiqarish va undan tushirish uchun mo'ljallangan inshoot;

Oldingi tahrirga qarang.

ishlab chiqarish xonalari — dispetcherlik xonalari, yo'lovchilarni ko'rikdan o'tkazish xonalari, kassalar zali (chipta kassalari), qo'l yukini saqlash kameralari, yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlashni monitorlar orqali kuzatish uchun texnologik anjomlarga ega bo'lgan xonalar, tibbiyot va ichki ishlar organlari xodimlarining xizmat xonalari va shu kabilar;

(2-bandning yettinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-maydagi 321-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2018 g., № 09/18/321/1154)

ish rejimi — avtovokzal (avtostansiya)lar uchun avtobuslar harakati jadvalidan kelib chiqqan holda aniqlanadigan ish kunining boshlanish va tugash vaqti;

avtovokzal (avtostansiya) ishlarining texnologik jarayoni — avtovokzal (avtostansiya) xizmatlari ishlarini tashkil etish jarayoni, avtobuslarni qabul qilish va jo'natish hamda yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha har sutkada bajariladigan operatsiyalarning o'zaro bog'liqligi va muntazamliligi.

Oldingi tahrirga qarang.

3. Pasport tadbirkorlik subyektiga O'zbekiston avtomobil transporti agentligining hududiy boshqarmalari tomonidan (keyingi o'rinlarda "Agentlik" deb ataladi) ushbu Nizomga 1-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha beriladi.

(3-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

4. Shahar yo'nalishlaridagi yo'lovchilar stansiyalari va to'xtab o'tish punktlari faoliyatini amalga oshirish uchun pasport olish talab qilinmaydi.

5. Pasport tadbirkorlik subyektiga — yuridik shaxsga (keyingi o'rinlarda tadbirkorlik subyektini deb ataladi) ushbu Nizomga 2-ilovaga muvofiq sxema bo'yicha beriladi.

6. Pasport amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi.

II. Ruxsat berish talablari va shartlari

7. Avtovokzal (avtostansiya) faoliyatini amalga oshirishda ruxsat berish talablari va shartlariga quyidagilar kiradi:

qonun hujjatlari talablariga, ishlarining belgilangan rejimiga va texnologik jarayoniga, avtotransport vositalaridan foydalanishda, ularning ekipirovkasi bo'yicha ekologiya talablariga tadbirkorlik subyektini tomonidan majburiy rioya etish, yo'l-transport hodisalarining oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

pasportda nazarda tutilgan yo'lovchilarning aynan bir vaqtdagi sig'imini, avtotransport vositalarini bir sutkadagi jo'nab ketishlari sonini ta'minlash;

avtovokzal (avtostansiya)ning tegishli mezonlariga muvofiq bo'lgan binolar, inshootlar, ishlab chiqarish xonalari va yer uchastkalari, perronlar, texnologik anjomlarning mavjudligi;

yo'lovchilar va avtovokzal (avtostansiya) ishlarining xavfsizligini ta'minlash uchun foydalaniladigan maxsus texnika vositalari bilan jihozlanganlik, shu jumladan yo'lovchilar uchun kutish zallarida, chipta kassalarida hamda yo'lovchilar ko'p to'planadigan boshqa joylarda videokuzatish kameralarining o'rnatilganligi, avtovokzal (avtostansiya) perimetri bo'yicha to'siqlarning, avtovokzal (avtostansiya)ga kirish-chiqish joylarida shlagbaumlarning mavjudligi;

avtovokzallarga kirish joylarida yo'lovchilarni va ularning bagajini tekshirish uchun turg'un metall detektorlar bilan jihozlangan tekshirish postlarining mavjudligi;

tashuvlar va yong'in xavfsizligi, avtotransport vositalarining saqlanishi, texnika xavfsizligiga rioya etish, reysga chiqishdan oldin avtotransport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazish va haydovchilarning tibbiy ko'rigi bo'yicha talablarni bajarish;

faqat litsenziya kartochkalari bilan ta'minlangan avtotransportlarga xizmat ko'rsatish;

avtovokzal (avtostansiya)ning nomi yoki joylashgan joyi (pochta manzili) o'zgargan hollarda bu to'g'rida Agentlikni tegishli o'zgartirishlar qayta ro'yxatdan o'tkazilgan sanadan boshlab yetti ish kunidan kechikmay xabardor qilish.

III. Pasport olish uchun zarur bo'ladigan hujjatlar

Oldingi tahrirga qarang.

8. Ariza beruvchi pasport olish uchun Agentlikning hududiy boshqarmasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

(8-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

pasport berish to'g'risidagi ariza, unda ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq tadbirkorlik subyektining nomi, joylashgan joyi (pochta manzili) tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatiladi;

Oldingi tahrirga qarang.

(8-bandning uchinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qaroriga asosan chiqarilgan — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

ma'muriy binoning, xizmat va ishlab chiqarish xonalarining, inshootlar va yer uchastkalarining joylashish sxemasi bilan birga avtovokzal (avtostansiya) kadastr rejasining nusxasi.

9. Tadbirkorlik subyektidan ushbu Nizomning 8-bandida nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

10. Pasport olish zarur bo'lgan hujjatlar tadbirkorlik subyektini tomonidan Agentlikning hududiy boshqarmasiga bevosita, ularning olingani to'g'risidagi xabarnoma bilan birga pochta aloqa vositasi orqali yoki elektron shaklda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar tadbirkorlik subyektining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

(10-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

11. Pasport olish uchun Agentlikning hududiy boshqarmasiga taqdim etilgan hujjatlar ro'yxat bo'yicha qabul qilinadi, ro'yxatning nusxasi Agentlikning hududiy boshqarmasi tomonidan hujjatlar qabul qilingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan holda darhol tadbirkorlik subyektiga beriladi (yuboriladi).

(11-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

IV. Arizani ko'rib chiqish va pasportni berish yoki uni berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish

Oldingi tahrirga qarang.

12. Agentlikning hududiy boshqarmasi tadbirkorlik subyektining arizasini ko'rib chiqadi, ushbu Nizomning 8-bandida nazarda tutilgan hujjatlar qabul qilib olingan sanadan boshlab o'n ish kunidan oshmaydigan muddatda pasportni beradi yoki uni berishni rad etadi.

Tadbirkorlik subyektining pasport berish to'g'risidagi arizasi Agentlikning hududiy boshqarmalari tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining yarmi miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi Agentlikning hisobvarag'iga o'tkaziladi. Tadbirkorlik subyektini pasport berish to'g'risida taqdim etilgan arizani rad etgan taqdirda yig'im qaytarib berilmaydi.

Agar Agentlikning hududiy boshqarmasi tadbirkorlik subyektining pasport berish to'g'risidagi arizasi ko'rib chiqilishi muddati mobaynida pasportni bermasa yoki pasport berishni rad etmasa, u holda hujjatlar qabul qilingan sanadan boshlab o'n ish kuni o'tgach, tadbirkorlik subyekti amalga oshirish uchun pasport olishni mo'ljallagan avtovokzal (avtostansiya) faoliyatini boshlash huquqiga ega bo'ladi va bu haqda Agentlik hududiy boshqarmasiga yozma ravishda xabar beradi.

Ushbu bandning uchinchi xatboshida nazarda tutilgan holatda Agentlikning hududiy boshqarmasi tadbirkorlik subyektining yozma bildirishnomasi olingan kundan boshlab besh ish kuni mobaynida unga pasport beradi. Pasport olingungacha qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yilgan taqdim etilgan hujjatlar ro'yxati hamda tadbirkorlik subyekti tomonidan Agentlik hududiy boshqarmasiga yuborilgan yozma bildirishnoma pasportga tenglashtiriladi va avtovokzal (avtostansiya)ning faoliyatini amalga oshirish uchun asos hisoblanadi.

(12-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

13. Pasport berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun Agentlikning hududiy boshqarmasi avtovokzal (avtostansiya) faoliyat ko'rsatishi xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xizmat, madaniy-maishiy va sanitariya-gigiyena inshootlari, texnik ko'rikdan o'tkazish postlari, yo'lovchilarni transportga chiqarish va undan tushirish uchun perronlar mavjudligini va ularning holatini, turg'un metall detektorlar bilan jihozlanganligini, to'siqlar, shlagbaumlarni mavjudligini ushbu Nizomning 12-bandida nazarda tutilgan muddatda o'rganib chiqadi.

O'rganish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, u Agentlik hududiy boshqarmasining mansabdor xodimi va tadbirkorlik subyektining rahbari tomonidan imzolanadi, dalolatnoma pasport berish yoxud pasport berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilish uchun asoslardan biri hisoblanadi.

(13-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

14. Agentlikning hududiy boshqarmasi tadbirkorlik subyektiga pasportni beradi (yuboradi) yoki pasport berishni rad etish to'g'risida tegishli qaror qabul qilingan sanadan boshlab bir ish kunidan kechikmay yozma shaklda uni xabardor qiladi.

(14-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Pasport berilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqining bir baravari miqdorida yig'im undiriladi. Yig'im summasi Agentlikning hisob raqamiga o'tkaziladi va pasportlarning blankalarini tayyorlash, avtovokzal (avtostansiya)ning faoliyat ko'rsatish xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xizmat, madaniy-maishiy va sanitariya-gigiyena inshootlari, texnik ko'rikdan o'tkazish postlari, yo'lovchilarni transportga chiqarish va undan tushirish uchun perronlar mavjudligini va ularning holatini, turg'un metall detektorlar bilan jihozlanganligini, to'siqlar, shlagbaumlarni mavjudligini o'rganish bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishda foydalaniladi.

Oldingi tahrirga qarang.

15. Pasportlarning blankalari qat'iy hisobot hujjatlari hisoblanadi, hisobga olish tartib raqamiga va himoyalanganlik darajasiga ega bo'ladi, Agentlikning buyurtmasi bo'yicha "Davlat belgisi" davlat ishlab chiqarish birlashmasida bosmaxona usulida tayyorlanadi. Pasportlarning blankalarini hisobga olish, saqlash va ulardan maqsadli foydalanish yuzasidan Agentlik rahbari, Agentlikning hududiy boshqarmalari boshliqlari javob beradi.

(15-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

16. Pasport berish quyidagi asoslar bo'yicha rad etilishi mumkin:

pasport berish uchun zarur bo'lgan hujjatlarning tadbirkorlik subyekti tomonidan to'liq hajmda taqdim etilmaganligi;

tadbirkorlik subyektining ruxsat berish talablari va shartlariga muvofiq emasligi;

tadbirkorlik subyekti tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzilgan ma'lumotlarning mavjudligi;

ushbu Nizomning 13-bandiga muvofiq o'tkazilgan o'rganishlar yakunlari bo'yicha asoslangan salbiy xulosa.

Pasport berishni boshqa asoslar, shu jumladan maqsadga muvofiq emasligi sabablari bo'yicha rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

17. Pasport berishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan taqdirda rad etish to'g'risidagi xabarnoma tadbirkorlik subyektiga, rad etish sabablari, qonunchilikning aniq normalari va tadbirkorlik subyekti ko'rsatilgan sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda yozma shaklda yuboriladi (taqdim etiladi). Tadbirkorlik subyekti rad etish sabablarini bartaraf etishga va hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishga haqli bo'lgan muddat pasport berishni rad etish to'g'risidagi yozma xabarnoma olingan kundan boshlab o'n ish kunidan kam bo'lishi mumkin emas.

18. Pasport berishni rad etish uchun asos bo'lgan sabablar belgilangan muddatda tadbirkorlik subyekti tomonidan bartaraf etilgan taqdirda hujjatlarni takroran ko'rib chiqish, pasport berish yoki uni berishni rad etish tadbirkorlik subyektining rad etish sabablarini bartaraf etilgani to'g'risidagi arizasi hamda rad etish sabablari bartaraf qilinganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar olingan kundan boshlab o'n ish kunidan oshmaydigan muddatda amalga oshiriladi.

Tadbirkorlik subyektining arizasi takroran ko'rib chiqilganligi uchun yig'im undirilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

19. Hujjatlarni takroran ko'rib chiqishda ariza beruvchiga ilgari yozma shaklda bayon qilinmagan rad etish sabablarining Agentlikning hududiy boshqarmasi tomonidan ko'rsatilishiga yo'l qo'yilmaydi, ilgari ko'rsatilgan sabablarning bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq bo'lgan rad etish sabablarining ko'rsatilishi bundan mustasno.

(19-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

20. Pasport berishni rad etish to'g'risidagi yozma xabarnomada ko'rsatilgan muddat o'tgandan keyin tadbirkorlik subyekti tomonidan berilgan ariza yangidan berilgan hisoblanadi va u Agentlikning hududiy boshqarmasi tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

(20-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

21. Tadbirkorlik subyekti pasport berishning rad etilishi, shuningdek Agentlikning hududiy boshqarmasi mansabdor shaxsining harakati (harakatsizligi) yuzasidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

(21-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

V. Pasportni qayta rasmiylashtirish, dublikat berish

Oldingi tahrirga qarang.

22. Tadbirkorlik subyekti qayta tashkil etilganda yoki uning nomi yoxud joylashgan joyi o'zgarganda tadbirkorlik subyekti yoki uning huquqiy vorisi qayta ro'yxatdan o'tgandan keyin yetti ish kuni mobaynida Agentlikning hududiy boshqarmasiga pasportni qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi arizani, ko'rsatilgan ma'lumotlarni tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda berishi shart.

(22-bandning birinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

Hujjatlar tadbirkorlik subyekti tomonidan Agentlikning hududiy boshqarmasiga bevosita, ularning olingani to'g'risidagi xabarnoma bilan birga, pochta aloqa vositasi orqali yoki elektron

shaklda taqdim etiladi. Elektron shaklda taqdim etilgan hujjatlar tadbirkorlik subyekting elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanadi.

(22-bandning ikkinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Tadbirkorlik subyektidan ushbu bandeda nazarda tutilmagan hujjatlarni taqdim etishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Oldingi tahrirga qarang.

23. Pasportni qayta rasmiylashtirishda Agentlikning hududiy boshqarmasi berilgan pasportlar reyestriga tegishli o'zgartirishlar kiritadi. Pasportni qayta rasmiylashtirish va berish pasportni qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza, tegishli hujjatlar ilova qilingan holda Agentlikning hududiy boshqarmasi tomonidan olingan kundan boshlab besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

(23-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

24. Pasportni qayta rasmiylashtirish to'g'risida ariza bergan tadbirkorlik subyekti yoki uning huquqiy vorisi pasport qayta rasmiylashtirilgungacha unda ko'rsatilgan faoliyatni, ariza qabul qilingan sana haqidagi Agentlikning hududiy boshqarmasi belgisi qo'yilgan pasportni qayta rasmiylashtirish to'g'risidagi ariza asosida amalga oshiradi.

(24-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

25. Pasportni qayta rasmiylashtirganlik uchun yig'im tadbirkorlik subyekting pasport berish to'g'risidagi arizasi Agentlikning hududiy boshqarmasi tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan yig'im summasining yarmi miqdorida undiriladi. Yig'im summasi Agentlik hisobvarag'iga o'tkaziladi.

(25-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Oldingi tahrirga qarang.

26. Pasport yo'qolganda yoki yaroqsiz holga kelganda tadbirkorlik subyekting arizasiga ko'ra uning dublikati beriladi.

Agentlikning hududiy boshqarmasi pasport dublikatini tadbirkorlik subyekting arizasi, shuningdek, pasport yaroqsiz holga kelganda — pasportning asl nusxasi hamda pasportning dublikatini berish uchun yig'imning tadbirkorlik subyekti tomonidan to'langanini tasdiqlovchi hujjat olingan kundan boshlab besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda berishi (yuborishi) shart.

Pasport dublikati berilganligi uchun yig'im tadbirkorlik subyekting pasport berish to'g'risidagi arizasi Agentlikning hududiy boshqarmasi tomonidan ko'rib chiqilganligi uchun to'lanadigan yig'imning yarmi miqdorida undiriladi.

(26-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

VI. Pasportning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va uni bekor qilish

27. Pasportning amal qilishini to'xtatib turish, to'xtatish va uni bekor qilish "Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi ruxsat berish tartib-taomillari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining tegishli ravishda 22, 23 va 25-moddalarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshiriladi.

28. Quyidagilar pasportning amal qilishini belgilangan tartibda to'xtatish uchun asos bo'ladigan ruxsat berish talablari va shartlarining bir marta qo'pol ravishda buzilishiga kiradi:

Oldingi tahrirga qarang.

belgilangan tartibda Agentlikning hududiy boshqarmasi tomonidan o'tkaziladigan ruxsat berish talablari va shartlariga rioya etilishini tekshirishlardan bosh tortish;

(28-bandning ikkinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

uning uchun pasport berilgan faoliyatni amalga oshirish natijasida fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘iga zarar yetkazish yoki bunday zarar yetkazilishining real xavfini yaratish;

litsenziya kartochkalari bilan ta’minlanmagan avtotransport vositalariga xizmat ko‘rsatish; yo‘lovchilarning va avtovokzal (avtostansiya) ishlarining xavfsizligini ta’minlash uchun foydalaniladigan maxsus texnika vositalarining, shuningdek avtovokzal (avtostansiya)da to‘siqlarning mavjud emasligi.

VII. Berilgan pasportlar reyestri

29. Agentlik berilgan pasportlar reyestrini yuritadi va uni o‘zining rasmiy veb-saytiga joylashtiradi.

Berilgan pasportlar reyestrda tadbirkorlik subyektlari to‘g‘risida quyidagi asosiy ma’lumotlar ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak:

tadbirkorlik subyekting nomi, uning tashkiliy-huquqiy shakli, pochta manzili, telefon raqami;

pasportning berilgan sanasi va raqami, avtovokzal (avtostansiya)ning toifasi yoki klassi; pasportni qayta rasmiylashtirish, uning amal qilishini to‘xtatib turish va tiklashning asosi va sanasi;

pasportning amal qilishini to‘xtatish asosi va sanasi;

pasportni bekor qilishning asosi va sanasi;

pasport dublikatlarini berishning asosi va sanasi.

30. Pasportlar reyestrtdagi axborot uning bilan yuridik va jismoniy shaxslar tanishishi uchun ochiq hisoblanadi.

Avtovokzal (avtostansiya) pasportini berish tartibi to‘g‘risidagi nizamga

1- ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI



RESPUBLIKA UZBEKISTAN

AVTOVOKZAL (AVTOSTANSIYA) PASPORTI PASPORT AVTOVOKZALA (AVTOSTANSII)

№ _____

Pasport egasi: _____

Vladelets pasporta

Avtovokzal (avtostansiya) nomi: _____

Naimenovaniye avtovokzala (avtostansii)

Pochta manzili: _____

Pochtoviy adres

Bank rekvizitlari va STIR: _____

Bankovskiye rekviziti i INN

Berilgan sanasi: _____

Data vidachi

Pasport beruvchi organ: _____

Organ, vidavshiy pasport

Berilganlik asosi: _____

Vidan na osnovanii

Pasport reyestrda _____ — sonli raqam bilan qayd etildi.

Pasport zaregistrirovan v reyestre za № _____

O'zbekiston avtomobil transporti agentligining _____ hududiy _____
boshqarmasi boshlig'i

M.O'
M.P

Vakolatli shaxsning F.I.O.
imzosi F.I.O.
Podpis
upolnomochennogo litsa

Avtovokzal kategoriyasi (avtostansiya klassi): _____
Kategoriya avtovokzala (klass avtostansii)

Avtovokzal (avtostansiya) bir vaqtdagi sig'imi _____ yo'lovchi.
Odnovremennaya vmestimost avtovokzala (avtostansii)

Avtostansiyadan bir sutkada jo'natiladigan avtotransport vositalari soni — _____
Kolichestvo otpravleniy avtotransportnix edinits v sutki s avtostansii

Turgun metall detektor ramkasi yoki qo'l metall detektor mavjudligi _____
Nalichiyе statsionarnogo ili ruchnogo metallodetektora (mavjud, imeyetsya)

Video kuzatuv kameralarning mavjudligi _____
Nalichiyе kamer videonablyudeniya (mavjud, imeyetsya)

Avtovokzal (avtostansiya I klassi) haydovchilar uzoq vaqt dam olish honasi (mehmonhona) _____ o'rin.
Komnata dlitel'nogo otdixa voditeley avtovokzala (I klassa avtostansii) (gostinitsa) na mest.

Avtovokzal (avtostansiya I klassi) ona va bola honasi: _____ kv.m
Komnata materi i rebenka avtovokzala (I klassa avtostansii)

Yo'lovchilar uchun kutish zali: _____ kv.m
Zal ojidaniya dlya passajirov

Yo'lovchilarni avtobuslarga o'tkazish va tushirish uchun perronlar soni — _____
Kolichestvo perronov dlya posadki i visadki passajirov

Naydovchilarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish honasi _____ kv.m
Meditsinskiy punkt dlya provedeniya medosmotra voditeley

Avtovokzal (avtostansiya) ishlash tartibi: _____ dan soat _____ gacha.
Rejim raboti avtovokzala s do

Sanitariya-gigiena va madaniy-maishiy honasi mavjudligi _____
Nalichiyе kulturno-bitovix i sanitarno-gigiyenicheskoy komnat (mavjud, imeyetsya)

*(1-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori
tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)*

**Avtovokzal (avtostansiya) pasportini berish tartibi to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA**

Avtovokzal (avtostansiya) pasportini berish

SXEMASI

Oldingi tahrirga qarang.

Босқич-лар	Субъект-лар	Тадбирлар	Бажариш муддатлари
1-босқич	Тадбиркорлик субъекти — ариза берувчи	Автовокзал (автостанция)нинг паспортини бериш тартиби тўғрисидаги Низомда назарда тутилган рўйхатга мувофиқ паспорт олиш учун зарур хужжатларни тайёрлайди. Агентликнинг худудий бошқармасига хужжатларни бевосита, почта алоқа воситаси орқали ёки уларни олганлиги тўғрисидаги хабарнома билан электрон шаклда такдим этади.	Ариза берувчининг хоҳишига кўра
2-босқич	Агентликнинг худудий бошқармаси	<ol style="list-style-type: none"> 1. Ариза берувчидан хужжатларни бевосита почта алоқа воситаси орқали ёки уларни олганлиги тўғрисидаги хабарнома билан электрон шаклда қабул қилади. 2. Агентлик худудий бошқармасининг мутахассислари томонидан такдим этилган хужжатларни ўрганиш натижалари бўйича паспорт бериш ёки уни беришни рад этиш тўғрисида (шу жумладан, ариза берувчи томонидан паспорт беришни рад этиш учун асос бўлган сабаблар бартараф этилгандан кейин ариза берувчи томонидан хужжатлар такрор такдим этилган ҳолатда) раҳбариятга таклиф киритиш учун рухсат бериш талаблари ва хужжатларига мувофиқлиги хақида далолатнома тайёрлайди. 3. Раҳбар (бошлик ёки унинг ўринбосари) рухсат бериш талаблари ва хужжатларига мувофиқлиги хақидаги далолатнома асосида паспортни имзолайди ёки уни беришни рад этади. 4. Ариза берувчига паспортни беради (юборади) ёки паспорт беришнинг рад этилгани тўғрисида уни ёзма шаклда хабардор қилади. 5. Паспорт беришни рад этиш тўғрисида қарор қабул қилинганда ариза берувчига рад этиш сабаблари, қонунчиликнинг аниқ нормалари ва ариза берувчи кўрсатиб ўтилган сабабларни бартараф этиб, хужжатларни қайта кўриб чиқиш учун такдим этиши мумкин бўлган муддат кўрсатилган рад этиш тўғрисидаги хабарномани ёзма шаклда ариза берувчига юборади (беради). 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Хужжатларни қабул қилган кунда. 2. Ариза олинган кундан бошлаб 10 иш кундан ошмайдиган муддатда <p>Тегишли қарор қабул қилгандан кейин 1 иш кундан кечикмасдан</p>
3-босқич (зарур ҳолларда)	Тадбиркорлик субъекти — ариза берувчи	Паспорт беришни рад этиш учун асос бўлган сабаблар белгиланган муддатда ариза берувчи томонидан бартараф этилган тақдирда, хужжатларни қайта кўриб чиқиш, паспорт бериш ёки уни беришни рад этиш Агентликнинг худудий бошқармаси томонидан рад этиш сабаблари бартараф этилганлиги тўғрисидаги ариза ва рад этиш сабаблари бартараф этилганлигини тасдиқлайдиган тегишли хужжатлар олинган кундан бошлаб ўн иш кундан ошмайдиган муддатда амалга оширилади.	Хулоса беришни рад этиш тўғрисидаги хабарномада кўрсатилган муддатда

(2-илова О'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

Avtovokzal (avtostansiya) pasportini berish tartibi to'g'risidagi nizomga
3-ILOVA

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston avtomobil transporti agentligining
hududiy boshqarmasi boshlig'i
_____ga

Avtovokzal (avtostansiya)
pasportini berish to'g'risida
ARIZA

Sizdan _____

(joylashgan joyi, shuningdek, talabgorning pochta manzili, agar farqi bo'lsa)

_____manzili bo'yicha

joylashgan

_____ (toifasi, darajasi) (pasport talabgorining nomi va tashkiliy-huquqiy shakli)

_____toifa (darajasi)dagi

avtovokzal (avtostansiya) pasportini berishingizni so'raymiz.

Arizaga ma'muriy bino, xizmat va ishlab chiqarish xonalari, inshootlar va yer uchastkalari joylashishi sxemasi bilan birgalikda avtovokzal (avtostansiya)ning kadastr plani nusxasi ilova qilinadi.

Rahbar: _____

(F.I.O.)

(imzo)

M.O'.

Sana: 20__ y. "___" _____

(3-ilova O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-iyundagi 434-sonli qarori tahririda — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013-y., 50-son, 648-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.05.2018 g., № 09/18/321/1154, 11.06.2018-y., 09/18/434/1339-son)